

**AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI
RIVOJIGA TA’SIRI**

Sog‘inboyeva Shahzoda

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ularning tilshunoslik sohasiga ko‘rsatgan ta’siri hamda kompyuter lingvistikasi fanining shakllanish jarayoni yoritilgan. Shuningdek, mustaqillik yillarida o‘zbek tili davlat tili sifatida xalqaro miqyosda tan olingani, til va madaniyatni uzviy bog‘liqlikda o‘rganish tamoyillarining rivojlanishi tahlil qilinadi. Maqolada o‘zbek tili lug‘at tarkibida yuz bergan o‘zgarishlar, yangi davr talablari asosida rasmiy ish yuritish tizimini takomillashtirishga oid sa’y-harakatlar ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, axborot texnologiyalari, kompyuter lingvistikasi, o‘zbek tili, tilshunoslik, madaniyat, avtomatik tarjima, til me’yori, rasmiy ish yuritish.

**THE IMPACT OF INFORMATION TECHNOLOGIES ON THE
DEVELOPMENT OF UZBEK LINGUISTICS**

Sog‘inboyeva Shahzoda

Student of Namangan State University

Abstract: This article discusses the rapid development of information technologies in the Republic of Uzbekistan during the years of independence, their influence on the field of linguistics, and the formation process of computer linguistics as a separate discipline. It also analyzes how, during the independence period, the Uzbek language has gained international recognition as the state language and how the principles of studying language and culture in close interrelation have developed. The article further highlights the changes that have occurred in the lexical structure of the Uzbek language and the efforts made to improve the official document system in accordance with the requirements of the new era.

Keywords: Independence, information technologies, computer linguistics, Uzbek language, linguistics, culture, automatic translation, language norm, official document management.

Mustaqillik sharoitida Respublikamizda axborot texnologiyalari jadal sur’atlar bilan rivojlandi. Axborot-kommunikasiya vositalarining globallashuvi vujudga keldi. Hozirgi kunda hayotimizni kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Axborot texnologiyalarining hayotimizga kirib kelishi bir tildan ikkinchi tilga avtomatik tarjima

qilish imkoniyatini yaratdi. Bu esa axborot texnologiyasi bilan tilshunoslik hamkorligini kuchaytirdi va bu fanlar oralig'ida kompyuter lingvistikasi maydonga keldi. Kompyuter lingvistikasi jahon tilshunosligida XX asrning katta yutug'i, nazariya bilan amaliyot hamkorligining ulkan natijasi hisoblanadi. Bugungi kunda kompyuter lingvistikasining mavqeyi tobora ortib bormoqda. Shuning uchun ham mustaqillik davrida kompyuter lingvistikasiga bag'ishlangan A.Po'latov va S.Muhammedova (Toshkent, 2007), B.Yo'ldoshev (Samarqand, 2009), A. Rahimov (Toshkent, 2010)larning asarlari nashr qilindi. Bunday asarlarning dunyoga kelishi o'zbek tilshunosligini yangi yo'nalish bilan boyitdi. Bugungi kunning eng dolzarb masalasi bo'lgan avtomatik tarjima, kompyuter leksikografiyasi, til o'rgatish jarayonini avtomatlashtirish, matnlarni avtomatik tahrir qilish singari muammolar yuzasidan ma'lumotlar berildi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligiga 25 yil to'ldi. Necha ming yillik ko'hna tarix uchun qisqa bo'lgan bu davrda yurtimizda juda katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi, xalq hayotining barcha sohalarida keng ko'lamli islohotlar olib borildi. Ayniqsa, 70 yillik Sho'rolar istibdodi natijasida qariyb unutilish darajasiga kelib qolgan milliy an'ana va qadriyatlarimiz tiklandi, o'zining haqiqiy bahosini oldi. Eng muhimi, istiqbol yillarida vatandoshlarimizning hayotga bo'lgan munosabati tubdan o'zgarib, yurtdoshlarimizda yaratuvchanlik, bunyodkorlik ko'nikmasi shakllandi, o'zining o'zbek xalqi farzandi ekanligidan g'ururlanish, milliy iftixor tuyg'usi paydo bo'ldi. Ana shunday maqsadli islohotlarning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining joriy yilning may oyida «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida»gi farmonining e'lon qilinishi o'zbek xalqi tarixiga zarhal harflar bilan yoziladigan qutlug' sana bo'lib kirdi, ona tili va adabiyotimizning keyingi kamoli va bardavomligining huquqiy asosini ta'minladi. Ma'lumki, dunyo tajribasida alohida tilshunoslik institutlari yoki adabiyotshunoslik markazlari mavjud bo'lsa-da, biroq milliy til va milliy adabiyotni bir butunlikda tadqiq etadigan, yutuqlarini to'g'ridan to'g'ri ta'lim bilan baham ko'radigan maxsus muassasa yo'q hisobi. Farmonning originalligi, professionalligi shundaki, unda ona tilini milliy adabiyotsiz, milliy adabiyotni esa ona tilisiz o'rganib bo'lmagidek oydin haqiqat, yillar sinovidan o'tgan tajriba o'z tasdig'ini topgan.

O'zbekistonning mustaqil mamlakat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilinishi, dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan tenglik tamoyiliga asoslangan diplomatik munosabatlarning o'rnatilishi natijasida ona tilimiz bo'lgan o'zbek tilini ham O'zbekiston nomli diyorning davlat tili sifatida dunyo hamjamiyati tan ola boshladi, o'zbek tilida so'zlashni o'ziga sharaf deb biladigan o'rganuvchilar, jahonning nufuzli ilmiy dargohlarida bu tilni maxsus o'rganuvchi ilmiy markazlar paydo bo'ldi. Bu davr tilshunosligining yana bir o'ziga xos jihati shundaki, tilni o'rganishning



an'anaviy-tarixiy, sistem-struktur va antroposentrik tadqiq tamoyillari yonma-yon ish olib bordi, bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi¹. Masalan, H.Ne'matov, R.Rasulov, O.Bozorov, SH.Iskandarova, Sh.Shahobiddinova, M.Qurbonova, B.Mengliyev kabi tilshunoslarning² tadqiqotlarida til sistem-struktur planda o'rganildi, mazkur tadqiqotlar natijasi bo'lgan bir qator darslik va o'quv qo'llanmalari nashr etildi¹.

XX asrning so'nggi choragida tilshunoslikda til va madaniyat masalasining kun tartibiga chiqishi, aslida, xalqlarning milliy o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurni yangilashga bo'lgan ehtiyoji natijasidir. Til hodisalariga millat madaniyati, milliy mentalitetida, bilish faoliyati kabi omillar bilan bir butunlikda o'rganiladigan mazkur tadqiq tamoyili hozirgi kunda dunyo tilshunosligining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. O'zbek tilshunosligida ham o'zbek tilini o'zbek xalqining milliy-madaniy omillari asosida o'rganishga intilish tobora kuchayib bormoqda. Buning natijasida o'zbek tilshunosligiga V.Gumbolt, B.L.Worf, E.Sapir, I.Vaysgerber, V.Teliya, V.Maslova kabi mashhur tilshunoslarning qarashlari kirib keldi. Antroposentrizmning pragmalingsvistika, psixolingsvistika, sotsiolingsvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya³ sohalariga oid monografiya va o'quv qo'llanmalari yaratildi. Bunda N.Mahmudovning «Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...» maqolasi tilni shaxs omili asosida o'rganishni maqsad qilgan tadqiqotchilar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbek tilining davlat tili maqomi ostida jadal rivojlanishi natijasida bu tilning lug'at tarkibida ham bir qator o'zgarishlar yuz berdi va bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Masalan, avval faqat rus tili orqali o'zlashgan so'zlar endi tilning tabiiy qonuniyatiga mos ravishda ingliz, fransuz kabi tillardan bevosita o'zlashtirila boshlandi. Ayni paytda o'zbek tiliga milliy ruh bag'ishlash harakati bilan olib borilgan tadbirlar natijasida o'zbek tilidan bir qator so'zlar {spravka, xarakteristika, rayon, oblast, ministr kabilar)ning til arxaik fondidan joy olishiga sabab bo'ldi. Tabiiyki, bu va boshqa ko'plab lisoniy jarayonlar tufayli o'zbek tilining adabiy me'yorlarida o'zgarishlar yuz berdiki, bularni aniqlash, ma'lum me'yorlarga bo'ysundirish zarurati kun tartibiga qo'yildi. E.Begmatov, A.Mamatov, N.Mahkamov kabi tilshunoslarning hozirgi o'zbek adabiy tili va uning me'yorlarini belgilashga qaratilgan asarlari ana shu zarurat natijasi sifatida yuzaga keldi⁴. O'zbek tilining qonuniy muhofazasi 1989-yilda ta'minlangan bo'lsa ham, uzoq yillar rasmiy ish yuritish tizimi rus tilida olib borilgani sababli, o'zbek tilidagi hujjatchilik tizimi ishdan chiqqan yoki kamida achinarli ahvolga kelib qolgan edi. Yangi davr esa o'zbek tilida ish yuritishning yangi tartib-qoidalarini

¹Раҳматуллаев Ш. Систем лексикология асослари. - Тошкент, 2007.

² Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (Содда гап синтаксиси учун материаллар). - Тошкент, 2002

³ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент, 2008.

⁴ Beshmatov Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. I—III жилдлар. - Тошкент: Наврўз, 1997; Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. - Тошкент, 1988.



ishlab chiqishni taqozo etar edi. Ana shu ijtimoiy zaruratni to'g'ri anglagan bir guruh tilshunoslar tomonidan «Ish yuritish» kitobi yaratilib, qayta-qayta nashr etildi. Buning natijasida rasmiy ish qog'ozlari uslubi ma'lum me'yorlarga solindi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi natijasida tilshunoslikda yangi yo'nalish — kompyuter lingvistikasi shakllandi. O'zbek tili nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda o'rganilayotgan tilga aylandi. Tilshunoslik sohasida an'anaviy va zamonaviy tadqiq tamoyillari uyg'unlashib, o'zbek tili va madaniyatini bir butunlikda o'rganishga keng yo'l ochildi. Shu bilan birga, o'zbek tili lug'at tarkibida yuz bergan o'zgarishlar, me'yoriy tizimni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar milliy til taraqqiyotining mustahkam poydevorini yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдиzlари ва йўналишлари. - Тошкент, 2009. - Б. 107.
2. Ахманова О. С. Глоссематика Л. Ельмслева как проявление упадка современного буржуазного языкознания. // Вопросы языкознания, 1953. №5.
3. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. - Тошкент, 2007;.
4. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. -Тошкент, 2010 ва бошқалар
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент, 2008;
6. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах, 2006.
7. Каримов И. Юксак маънавият - енгилмас куч. -- Тошкент, 2007. - Б. 87.
8. Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (Содда гап синтаксиси учун материаллар). - Тошкент, 2002
9. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент, 2008.
10. Усмонова Ш. Психоллингвистика (ўқув-услубий мажмуа). - Тошкент, 2011.
11. Убайдуллаев А. Ҳиндистонда яратилган туркий луғат // Til va adabiyot ta'limi, № 3 2010.
12. Ғаниева С. Техрон китобхоналаридаги Навоий асарларининг қўлёзмалари // ЎТА, №4, 1991.